

2-TOM, 1-SON
EVFEMIZMLARNING O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI O'RNI
XUSUSIDA

Radjabov Ruslan
BuxDu o'qituvchisi
Ismatova Gulniso
BuxDU 4-bosqich talabasi

ANNATASIYA

Ushbu maqolada evfemizmlarning paydo bo'lishi, uning fransuz tilida sinonimlari, lingvomadaniy ma'no tushunchasining shakllanishi to'grisida fikr yuritiladi. Fransuz tili va o'zbek tilida misollar bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, evfemizm, so'z ma'nolari, sinonimlar, milliy madaniy urf-odatlar.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda evfemizmlar so'zlovchiga odobsiz, qo'pol yoki xushmuomala bo'lib tuyuladigan sinonim so'zlar yoki iboralar o'rniga ishlatiladigan emotsional neytral so'zlar yoki iboralar sifatida ta'riflanadi. Fransuz tilida evfemizm so'ziga **adoucissement** (yumshatish), **antiphrase** (antifraza), **atténuation** (susaytirish) yoki **litote** (litota) sinonim sifatida keltiriladi.

Evfemizm - yunoncha εὐφημισμός / **euphēmismos**, ya'ni φημί / **phēmī**, «aytmoq, gapirmoq» εὖ- / **-eū**, - perefiksi «yaxshi, xayriyat» ("yaxshi gapirmoq") so'zlaridan iborat bo'lgan nutq figurasi bo'lib, antik davrda baxtsizlikni ifodalaydigan atamalardan qochish uchun ishlatilgan. Bu davrdagi evfemizmni qo'llashni tushuntirish juda oddiy: o'sha paytda shahvoniylik, tana va boshqalar bilan bog'liq barcha narsalarni yashirish kerak edi.

Manbalar shuni ko'rsatadiki, evfemizmlar har bir tildagi to'g'ridan-to'g'ri ifodasi qayg'uli, yoqimsiz, stress holatini keltirib chiqaradigan so'z, so'z birikmalari va gaplarni tinglovchiga yumshatish yoki susaytirish uchun fikrlash figurasi deb ta'riflanadi.

Hozirgi zamonaviy fransuz tilining badiiy asarlarida, matbuotda, umuman evfemizmlar keng miqyosda qo'llaniladi. Umuman olganda evfemizmlar avvalo har bir millatning milliy-madaniy urf-odatlaridan kelib chiqqan holda ishlatiladi. Masalan, fransuz tilida ko'zi ojiz insonga nisbatan *aveugle* – ko'r emas, «non-voyant» "ko'rmaydi" so'zi bilan yoki *sourd* - kar emas, balki «malentendant» "yomon eshitadigan" sifatida, ma'nolarini yumshatish holatlari keng kuzatiladi. Shu bilan birga, quyidagi misollarda: *Il est mort* - u o'ldi, deb kamdan-kam hollarda to'g'ridan-to'g'ri qo'llaniladi. Uning o'rniga «il est parti» "u



2-TOM, 1-SON

ketdi" yoki «il nous a quittés» yoki "u bizni tark etdi" tarzida qo'llanilishini ko'rish mumkin. Xuddi fransuz tilida bo'lgani kabi o'zbek tilida ham evfemizmlarni ko'p ishlatishga majbur qiladigan yana bir mavzu - bu o'lim mavzusidir. Masalan: o'ldi so'zini – bandalikni bajo keltirdi, oxiratga rixlat qildi, dunyoni tark etdi va hokazolar... kabi variantlar o'zbek milliy madaniyatidan kelib chiqib qo'llaniladi. Mazkur so'zga Alisher Navoiy va Husayn Bayqaro o'rtasidagi yozishmani ham misol keltirish mumkin:

“Sarvi gulning soyasinda **so'ldi gul**, netmoq kerak?”

“Sarvidin tobut yasab, guldan kafan etmoq kerak”

Yuqoridagi misrada “**o'ldi, vafot etdi**” so'zlari “**so'ldi gul**” tarzida aytilganligini ko'rish mumkin. Unda Navoiy malikaning vafoti haqidagi shumxabarni shu tarzda, o'ta ehtiyotkorona usulda shohga yetkazadi. Oqibatda uni yetkazgan choparning boshi omon qoladi.

Zamonaviy fransuz tilida ham **o'lmoq** so'zi uchun fransuzlar quyidagi so'z va so'z iboralarni qo'llaydilar. Masalan: **Faucheuse** (o'roqchi), **camarde** (o'limning allegorik va antropomorfik figurasi, odatda skelet yoki ozg'in jasad shaklida tasvirlangan, oksitan tilidan olingan, "tekis burunli" degan ma'noni anglatuvchi kamard sifatlaridan kelib chiqqan¹), **lâcher la rampe** (panjarani qo'yib yubormoq) va **dévisser son billard** (bilyard stolini ochmoq), **il s'est éteint** (u o'chib qoldi), **il est parti pour un monde meilleur** (yaxshi dunyoga ketdi) shular jumlasidandir.

Evfemizatsiya jarayoni ma'lum bir tilda so'zlashuvchi odamlarda, uning ona tili yoki chet tili bo'lishidan qat'i nazar, lingvomadaniy ma'no tushunchasining shakllanishini ko'rsatadi. Evfemizmlar jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning belgisi hisoblanadi. Bu o'zgarishlar tilda o'z aksini topadi va dunyoning lingvistik rasmiga ta'sir qiladi, bu esa, o'z navbatida, so'zlovchilarning dunyoqarashini aks ettiradi².

Xulosa qiladigan bo'lsak, evfemizm boshqa ko'plab nutq shakllari kabi, bizning kundalik hayotimizning bir qismidir. Evfemizatsiya jarayonining axloqiy tomoni qayg'uli, yoqimsiz, stress holatini keltirib chiqaradigan so'z, so'z birikmalari va gaplarni tinglovchiga yumshatish yoki susaytirish uchun ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Radjabov, R. (2020). Moyens d'exprimer du sens futur dans les constructions hypothétiques. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 6(2).

¹ «**CAMARDE** : Définition de **CAMARDE** [archive] », sur cnrtl.fr, *Centre national de ressources textuelles et lexicales*, 2012.

² Темирбаева Е.К. Эвфемизмы в языке политики и художественной литературе // Слово в словаре и в тексте : сборник статей. М. : МГУ, 1991. С. 13–21.



2-TOM, 1-SON

2. Radjabov, R. "Научные взгляды ученых на употребление термина «будущее». На славянском и персидском." *Центр научных публикаций (buxdu. Uz)* 16 (2022): 16.
3. Radjabov, R. (2023). Орфография Научно-теоретические соображения по орфографии французского языка: теоретические взгляды ученых на орфографию. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 27(27).
4. Radjabov, R. (2023). Accents et marques orthographiques en français. *центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 28(28).
5. 10. Radjabov, R. (2023). A propos du concept d'orthographe française. *центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 28(28).
6. 11. Rajabmurodovich, R. R. (2023, February). Fransuz tili orfografiyasiga uyg'onish davri tilshunos olimlari tomonidan kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida. In "CANADA" International conference on developments in education, sciences and humanities (Vol. 9, No. 1).
7. Radjabov, Ruslan. "Tilshunoslar ahamiyatidagi tinish belgilarining dastlabki sharhlar." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 31.31 (2023).
8. Radjabov, Ruslan. "Fransuz tili orfoepiyasining shakllanish bosqichlari." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 30.30 (2023).
9. Radjabov, Ruslan. "Orfografiya Fransuz tili orfografiyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar: orfografiya to'g'risidagi olimlarning nazariy qarashlari." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 27.27 (2023).
10. Radjabov, Ruslan. "Scientific Opinions of Scholars on the use of The Term "Future" In Slavic and Persian." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 16.16 (2022).
11. Ruslan, Radjabov. "Points de vue scientifiques sur les normes orthographiques françaises." *Gospodarka i Innowacje*. 42 (2023): 726-730.
12. Ruslan, Radjabov. "À propos du terme orthographe." *Gospodarka i Innowacje*. 42 (2023): 731-735.
13. Islomov, Dilshod. "TOVUSHLAR O 'ZBEK TILIDA TOVUSHLAR ARTIKULYATSIYASI." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 45.45 (2024).
14. Islomov, Dilshod. "LE TERME PHONOLOGIE, PHONOSTYLISTIQUE SELON NS TRUBETSKOY." *Models and methods in modern science* 2.14 (2023): 19-22.
15. Islomov, D. (2020). ABDULLA QODIRIYNING HAYOTI VA UNING O'ZBEK ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 6(2).





2-TOM, 1-SON

16. Islomov, D. Sh. "THE DIFFERENTIATION ASPECTS OF UZBEK AND FRENCH PHONETICS." *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research* 10.11 (2023): 47-51.

17. Islomov, D. Sh. "SIMILARITY ASPECTS OF UZBEK AND FRENCH PHONETICS." *International Multidisciplinary Journal for Research & Development* 10.10 (2023).

18. Shomurodovich, Islomov Dilshod. "THE EMERGENCE OF PSYCHOLINGUISTICS, THE SCIENTISTS'SCIENTIFIC-THEORETICAL VIEWS AND ITS CONNECTION WITH OTHER SCIENCES." *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN* 6.5 (2023): 213-218.

